uzunlik
desimetr
santimetr





**1.** Ko‘pburchaklar tomonlari uzunliklari yig‘indisini toping. Ifodalarni mos kelgan ko‘pburchaklar bilan tutashtiring.



$a$ cm + $a$ cm + $a$ cm + $a$ cm

$a$ cm + $b$ cm + $c$ cm

$a$ cm + $b$ cm + $a$ cm + $b$ cm

**2.** Daftaringizga berilgan o‘lchamlar bo‘yicha uy quring:
devorlari — tomonlari 6 cm ga teng bo‘lgan kvadrat;
tomi — tomonlari 6 cm ga teng bo‘lgan uchburchak;
derazasi — tomonlari 3 cm ga teng bo‘lgan kvadrat.

**3.** Oldin juft, so‘ng toq sonlarni o‘sish tartibida yozib chiqing. Mos harflardan qanday so‘zlar hosil bo‘ldi? Ularni nima birlashtiryapti?

| 78 | 76 | 84 | 71 | 82 | 74 | 72 | 80 | 73 | 81 | 77 | 79 | 75 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| U | R | I | B | CH | U | Q | V | O‘ | I | Q | CH | Y |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Juft: | | | | | | | | |
| Toq: | | | | | | | | |

T.ME/TRM_METODIKA_UZ CHOP ETISH UCHUN EMAS

**4.** Bo‘sh kataklarni to‘ldiring. Nimani bilib oldingiz?

| | |
|---|---|
| 3 o‘nl. 4 birl. = □□ | 3 dm 4 cm = □□ cm |
| 5 o‘nl. 2 birl. = □□ | 5 dm 2 cm = □□ cm |
| □□ = 5 o‘nl. 1 birl. | □□ cm = 5 dm 1 cm |
| □□ = 6 o‘nl. 2 birl. | □□ cm = 6 dm 2 cm |

**5.** Bo‘yoqchilar maktabning 49 ta xonasini bo‘yashlari kerak. Ular birinchi kun maktabning 15 ta xonasini, ikkinchi kun 14 ta xonasini bo‘yashdi. Yana nechta xona bo‘yalishi kerak?

**6.** Rasmda nechta kesma bor?



**7.** Qulay usul bilan hisoblang.

3 + 59 + 7

4 + 28 + 2 + 6

(9 + 18) + 11

5 + (17 + 5)

(17 + 5) + (15 + 3)

T.ME/TRM_METODIKA_UZ